

OG‘ZAKI MULOQOT KO‘NIKMALARIGA VAZIFAGA ASOSLANGAN TA‘LIMNING TA‘SIRI

Eshboyeva Guljaxon Baxtiyorovna

Toshkent: “Diplomat University” talabasi

Ilmiy rahbar: Mamadjanova Dildora Ulug‘bek qizi

+998 90 187 06 24

Eshboyevanafisa022@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada TBL (vazifaga asoslangan ta‘lim) usulining o‘quvchilarning og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Maqolada o‘quvchilarga beriladigan kommunikativ vazifalar, jumladan, rolli o‘yinlar, juftlik va guruhda ishlash, muammoli vaziyatlarni hal etish kabi faoliyatlar orqali ularning nutq faolligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu yondashuvning an‘anaviy o‘qitish metodlariga nisbatan samaradorligi solishtiriladi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning erkin gapirish, fikrini ifodalash ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Bundan tashqari, bu metod o‘quvchilarning tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: vazifaga asoslangan ta‘lim, og‘zaki nutq, muloqot ko‘nikmalari, kommunikativ yondashuv, nutq faolligi, rolli o‘yinlar, guruh ishlari, kommunikativ kompetensiya.

Abstract. In this article, the importance of TBL for the development of students’ oral communication skills is examined. The article analyzes how communicative activities such as role-playing games, pair work, group activities, and problem-solving exercises help increase students’ speaking skills. Additionally, this method is compared with traditional teaching methods in terms of effectiveness. It allows students to develop speaking skills freely, express their ideas fluently and clearly, and participate actively in communication. Also, this method provides opportunities to use language in real-life situations and develop overall communicative competence.

Keywords: Task-Based Learning, oral speech, communication skills, communicative approach, speaking activity, role play, group work, communicative competence.

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль и значение обучения, основанного на выполнении заданий (Task-Based Learning, TBL), в развитии навыков устной коммуникации учащихся. В статье анализируется, каким образом коммуникативные задания, такие как ролевые игры, работа в парах и группах, а также деятельность по решению проблем, способствуют совершенствованию навыков устной речи. Кроме того, эффективность данного подхода сравнивается с традиционными методами обучения. Этот подход помогает развивать у учащихся способность свободно говорить, ясно и бегло выражать свои мысли, а также активно участвовать в процессе общения. Более того, данный метод

способствует применению языка в реальных жизненных ситуациях и повышает общий уровень коммуникативной компетенции обучающихся.

Ключевые слова: обучение, основанное на выполнении заданий (*Task-Based Learning*), устная речь, коммуникативные навыки, коммуникативный подход, речевая деятельность, ролевая игра, групповая работа, коммуникативная компетенция.

Kirish. Hozirgi kunda chet tillarini o'qitishda og'zaki nutqni rivojlantirish asosiy masala hisoblanadi. Ko'plab o'quvchilar grammatik bilimga ega bo'lsa-da, uni og'zaki nutqda qo'llashga qiynaladi va erkin gapira olmaydi. Shu sababli o'qitish jarayonida samarali metodlardan foydalanish ortib bormoqda. Task-Based Learning ana shunday zamonaviy metodlardan biri bo'lib, u o'quvchilarni hayotiy vaziyatlarga yaqin bo'lgan topshiriqlar orqali o'rganishga undaydi. Ushbu maqolaning maqsadi mazkur metodning o'quvchilarning og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rnini ko'rib chiqishdan iborat.

Task-Based Learning (TBL) modeli bir nechta mashhur olimlar tomonidan rivojlantirilgan. N. S. Prabhu TBLning asoschisi hisoblanadi. U bu yondashuvni Hindistonda olib borilgan Bangalore Project (1979) orqali isbotlashga harakat qilgan. Uning fikricha, talabalar tilni grammatik qoidalarni o'rganish orqali emas, balki muammolarni hal qilishga qaratilgan vazifalar orqali yaxshiroq o'rganadilar.

Yana mashhur olimlar Jane Willis va Dave Willis ushbu yondashuvni dars jarayoniga moslashtirganlar. Ular Prabhu modelini uch bosqichga bo'lganlar: pre-task (oldindan tayyorgarlik), task cycle (vazifani bajarish) va language focus (tilni tahlil qilish).

Asosiy qism. Task-Based Learning chet tilini o'qitishning samarali metodlaridan biri bo'lib, ushbu yondashuv o'quvchilarning og'zaki muloqot vaqtida faollashishini osonlashtiradi va ularning ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llashlari va shu orqali o'z ravonliklarini oshirishlari mumkin.

Mashhur lingvist Dell Hymes (1972) kommunikativ kompetensiya tushunchasini kiritib, tilni bilish bilan birga uni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llay olish ham muhimligini ta'kidlagan. TBL ana shunday vaziyatlarni shakllantirib, o'quvchilarning til o'rganish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Canale va Swain (1980) kommunikativ kompetensiyaning grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlardan tashkil topishini ta'kidlaydilar. Ushbu komponentlarning barchasi o'quvchilarning o'z fikrlarini to'g'ri va tushunarli tarzda ifodalashi uchun zarurdir. Vazifaga asoslangan mashg'ulotlar esa ushbu komponentlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Harmer (2007) chet tilini o'qitishda rolli o'yinlar va o'quvchilar o'rtasidagi suhbatlar o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishi hamda til vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishini qayd etgan. Uning fikricha, o'quvchilar haqiqiy hayotga

yaqin vaziyatlarda o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'lganda, ularning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortadi va erkin nutqi shakllanadi.

Littlewood (1981) kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi o'quvchilarni muloqotga tayyorlash ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, vaziyatli topshiriqlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash va til vositalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa og'zaki muloqotning tabiiy va samarali rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, TBL (vazifaga asoslangan ta'lim) metodi juda samarali hisoblanadi. Bu metod o'quvchilarni haqiqiy hayotga yaqin vaziyatlarga jalb etib, ularda erkin fikr bildirish va muloqotda faol ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, o'quv jarayonida og'zaki nutq juda muhim hisoblanadi.

Maktabda yoki universitetda o'qiyotgan talabalar, eng avvalo, o'qigan mavzularini izchil bayon qila olishlari va savol-javob jarayonlarida o'z fikrlarini erkin ifodalashlari kerak. Og'zaki nutq hayotning ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat kundalik hayotda, balki ta'lim va ish faoliyatida ham insonning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Kelgusida yangi ish boshlash yoki muhim uchrashuvlarda qatnashish jarayonida fikrni aniq va ravon bayon qila olish katta ahamiyatga ega. Inson o'z ongida shakllangan fikrlarini qo'rqmasdan ifodalay olishi uchun ushbu metod juda foydalidir. Ayniqsa, biznes korporatsiyalarida samarali muloqot muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Nutq shunday vositaki, u inson hayotida juda katta o'rin tutadi. Yozish ko'nikmalari rivojlangan, grammatika yaxshi o'zlashtirilgan va bilim darajasi yuqori bo'lsa-da, nutq boyligi yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, bu insonning imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Kommunikativ yondashuv esa o'quvchilarni muloqotga chorlaydi. O'qilgan ma'lumot turli shakllarda qabul qilinishi mumkin, ammo uni nutq orqali ifodalash ong va tafakkurning kengayishiga yordam beradi. Shuningdek, o'qilgan mavzuni qayta bayon qilish jarayonida uni yanada chuqurroq tushunish imkoniyati yuzaga keladi. Natijada ushbu bilimlar ongda mustahkam saqlanib qoladi.

Ushbu metoddan olingan xulosalar og'zaki nutqning qanchalik muhim ekanligini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi, chunki nutq inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prabhu, N. S. (1987). Second Language Pedagogy. Oxford University Press.
2. Willis, J. (1996). A Framework for Task-Based Learning.
3. Willis, D. (2007). Doing Task-Based Teaching. Oxford University Press.
4. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence.

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

5. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.
6. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching* (4th ed.).
7. Littlewood, W. (1981). *Communicative Language Teaching: An Introduction*.

